

Usmonova Ruxsora Sobirjon qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
r.usmonova@gmail.com

XX ASRNING 70-YILLARI SAMARQAND VILOYATIDA SUG'ORISH INSHOOLARI QURILISHINING AYRIM JIHLTLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning 70-yillarida Samarqand viloyatida amalga oshirilgan sug'orish inshootlari qurilishining ayrim jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda irrigatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, kanallar, nasos stansiyalari va boshqa gidrotexnik inshootlar qurilishi jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, sug'orish inshootlarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga, yerlarni o'zlashtirishga hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy asosda yoritib berilgan. Tadqiqot materiallari arxiv hujjatlari va ilmiy manbalarga tayanilgan holda o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** sug'orish inshootlari, irrigatsiya, Samarqand viloyati, XX asr, qishloq xo'jaligi.*

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ СТРОИТЕЛЬСТВА ОРОСИТЕЛЬНЫХ СООРУЖЕНИЙ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 1970-Е ГОДЫ XX ВЕКА

***Аннотация.** В статье освещаются отдельные аспекты строительства оросительных сооружений, осуществлённого в Самаркандской области в 1970-е годы XX века. В ходе исследования проанализирована государственная политика, направленная на развитие ирригационной системы, а также процессы строительства каналов, насосных станций и других гидротехнических сооружений. Кроме того, с научной точки зрения рассмотрено влияние оросительных сооружений на сельскохозяйственное производство, освоение земель и социально-экономическое развитие региона. Материалы исследования основаны на анализе архивных документов и научных источников.*

***Ключевые слова:** оросительные сооружения, ирригация, Самаркандская область, XX век, сельское хозяйство.*

CERTAIN ASPECTS OF THE CONSTRUCTION OF IRRIGATION FACILITIES IN THE SAMARKAND REGION IN THE 1970S

***Annotation.** The article analyzes certain aspects of the construction of irrigation facilities in the Samarkand region during the 1970s. The study examines state policies aimed at the development of irrigation systems, as well as the construction of canals, pumping stations, and other hydraulic structures. Particular attention is paid to the impact of irrigation facilities on agricultural production, land development, and the socio-economic growth of the region. The research is based on archival materials and scholarly sources.*

***Keywords:** irrigation facilities, irrigation system, Samarkand region, 20th century, agriculture.*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida, xususan 1970-yillarda SSSRda qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu jarayonda sug'oriladigan yer

maydonlarini kengaytirish, mavjud irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va yangi sug'orish inshootlarini barpo etishga alohida e'tibor qaratildi.

1970-yillarda Samarqand viloyatida irrigatsiya sohasida amalga oshirilgan qurilish ishlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror ta'minlash, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda yangi yerlarni o'zlashtirishga xizmat qildi. Kanallar, nasos stansiyalari, suv omborlari va boshqa gidrotexnik inshootlar qurilishi natijasida sug'orish imkoniyatlari kengayib, dehqonchilik tarmoqlarining hosildorligi oshdi.

Shu bilan birga, sug'orish inshootlari qurilishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlash, yangi aholi punktlarining shakllanishi, infratuzilmaning rivojlanishi ushbu jarayonning muhim natijalaridan biri bo'ldi.

Mazkur maqolada XX asrning 70-yillarida Samarqand viloyatida amalga oshirilgan sug'orish inshootlari qurilishining ayrim jihatlari, ularning iqtisodiy, ijtimoiy hamda amaliy ahamiyati ilmiy asosda tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bir qator mutaxassislar, xususan, O.Komilov, A.Abdullayevlar tomonidan Samarqand viloyati irrigatsiya tizimidagi qurilishlarga oid ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgani[1]ga qaramay, viloyatda amalga oshirilgan qurilish bo'yicha maxsus tadqiqot hali amalga oshirilmagan. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida sug'orish inshootlarini qurilishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilingan. Mazkur mavzuni tadqiq etishda tarixiylik, obyektivlik, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma-ketlik va tarixiy izchillik tamoyillaridan foydalanib, yoritib berishga harakat qilindi.

XX asrning 2-yarmida SSSRda chuqurlashib borayotgan inqiroz paytida irrigatsiya tizimini intensiv ravishda rivojlantirish, suv xo'jaligini samarali boshqarish va sug'orish infrastrukturasi takomillashtirish, dehqonchilikda agrotexnik tadbirlarni qo'llash, sug'orma yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha yangiliklarni tatbiq etish, suv resurslaridan tejamli va oqilona tarzda foydalanishga bir qadar e'tibor qaratdi. 1964-yil 21-dekabrda O'zbekiston SSR Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 718-sonli "Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida sug'oriladigan yerlarni kengaytirish va sug'orish tizimi texnikasini takomillashtirish, sug'oriladigan yerlarni suv bilan ta'minlashni yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston SSR Suv xo'jaligi vazirligi 1965-yil 6-yanvarda 3-sonli buyruq chiqardi. Unga ko'ra, O'zbek SSR Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va tayyorlash vazirligi hamda O'zbek SSR Suv xo'jaligi vazirligi Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari ijroiya qo'mitalari tomonidan 1965–1970 yillar davomida 94 ming gektar zaxira va yangi yerlarni o'zlashtirish to'g'risida kiritilgan taklifni qabul qildi[2].

Shu o'rinda 15 ming gektar yerni o'zlashtirish maqsadida Amu–Qorako'l kanali va 24 ming gektar yerni sug'orish uchun Amu–Buxoro kanalini qurish, Qattaqo'rg'on suv omborini 27 ming gektarga kengaytirishga kelishib olindi[3]. XX asrning 70-yillari Samarqand viloyatida Donchilikka ixtisoslashgan hududlarda suv xo'jaligini boshqarish, sug'orish tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish hamda gidrotexnik inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bilan shug'ullangan maxsus sohaviy boshqarmasi tizimida kapital qurilish ishlari uchun boshlang'ich bosqich vazifasini bajargan davr sifatida xarakterlangan. 1971-yilda kapital qo'yimalarning asosiy qismi avvaldan boshlangan, ya'ni o'tkazilayotgan obyektlarga yo'naltirilgan. Ayniqsa, Kattaqo'rg'on kanali betonlashtirish uchastkasini rivojlantirish ishlari yetakchi o'rinni egallagan bo'lib, mazkur ob'ekt bo'yicha ham kapital qo'yimalar, ham qurilish-montaj ishlari hajmi yuqori darajada bo'lgan. Bu holat kanal orqali suv yo'qotishlarini kamaytirish va uning gidravlik samaradorligini oshirish birinchi navbatdagi vazifa sifatida belgilanganini ko'rsatadi. Shuningdek, 1971-yilda Damxo'ja suv ombori gidrouzelini rekonstruksiya qilish ishlari ham boshlanib, yil davomida rejalashtirilgan hajmlar asosan bajarilgan. Bu esa keyingi yillarda ushbu obyektga keng ko'lamli ishlar olib borish uchun mustahkam texnik zamin yaratilganini anglatadi[4].

1972-yilda kapital qurilish jarayonlari sezilarli darajada jadallashgan. Bu yilda qurilish ishlari faqat bitta yoki ikki obyekt bilan cheklanib qolmasdan, bir vaqtning o'zida bir nechta yirik suv inshootlarini qamrab olgan. XX asrning 2-yarmida Samarqand viloyatida Kattaqo'rg'on suv

10 ombori sig'iminig hajmi 2 barobar oshirildi[5]. Xususan, Kattaqo'rg'on kanali betonlashtirish ishlari davom ettirilgan bo'lsa, Damxo'ja gidrouzelida rekonstruksiya ishlari yanada kengaytirilgan. Shu bilan birga, Kattaqo'rg'on suv ombori va Narpay gidrouzeli chiqish kanalini rekonstruksiya qilish ishlari faol ravishda boshlangan. Kapital qo'yilmalar hajmining o'sishi mazkur yilda suv chiqarish quvvatini oshirish, suv taqsimotini barqarorlashtirish va irrigatsiya tizimining ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli siyosat amalga oshirilganini ko'rsatadi. Kattaqo'rg'on suv ombori chiqish kanalining alohida uchastkasini rekonstruksiya qilish ishlari mazkur siyosatning yaqqol ifodasi hisoblanadi. 1971–1975 yillarda mazkur obyektga ajratilgan kapital qo'yilmalar hajmini ko'payib borgan. Ya'ni 1971-yilda rekonstruksiya ishlari uchun nisbatan kam — 641 ming so'm atrofida mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, 1972 va 1973 yillarda bu ko'rsatkich 1000 ming so'mga yetkazilgan. 1974-yilda kapital qo'yilmalar hajmining 1500 ming so'mga oshirilishi rekonstruksiya ishlarining faol bosqichga o'tganini ko'rsatadi. 1975 yilda esa mazkur obyekt bo'yicha ajratilgan mablag'lar 1859 ming so'mga yetgan bo'lib, bu qurilish ishlari asosan yakuniy bosqichda amalga oshirilganini anglatadi. Demak, ushbu raqamlar kanal rekonstruksiyasi bosqichma-bosqich moliyalashtirilganini va asosiy ishlar davr oxirida jamlanganini yaqqol ko'rsatadi[6].

Natijalar va muhokama. Kattaqo'rg'on kanali betonlashtirish ishlari bilan bir qatorda Miyonkol–Xatirchi kanali hamda Kattaqo'rg'on kanali tizimi[7]ni ta'mirlash ishlari keng ko'lamda amalga oshirilgan. Qurilish-montaj ishlari hajmi va ishga tushirilgan quvvat ko'rsatkichlarining mutanosib o'sishi mazkur yilda kapital qo'yimlardan samarali foydalanilganini ko'rsatadi. Bu esa suv xo'jaligi infratuzilmasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish siyosati izchil amalga oshirilganini tasdiqlaydi. 1974-yil kapital qurilish ishlarida sifat jihatidan yangi bosqichga o'tish davri sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa Kattaqo'rg'on kanali va Damxo'ja gidrouzeli bo'yicha kapital qo'yimlarning keskin oshishi ushbu obyektlarni qurilish va rekonstruksiya qilish ishlari yakuniy bosqichga yaqinlashganini ko'rsatadi. Bu yilda asosiy e'tibor suv inshootlarining ekspluatasion barqarorligini ta'minlash, ularning texnik ishonchliligini oshirish va avariya holatlarining oldini olishga qaratilgan.

Shu sababli qurilish ishlari nafaqat hajm, balki sifat jihatdan ham yuqori darajaga chiqqan.

1975-yil esa 1971–1975 yillarga mo'ljallangan kapital qurilish dasturining yakuniy va eng yuqori cho'qqi nuqtasi hisoblanadi. Mazkur yilda Kattaqo'rg'on kanali betonlashtirish ishlari bo'yicha eng katta kapital qo'yimlar o'zlashtirilgan bo'lib, bu obyektida qurilish ishlari asosan to'liq yakunlangan. Shuningdek, Damxo'ja suv ombori gidrouzeli, Narpay gidrouzeli hamda Miyonkol–Xatirchi kanalida ham rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari rejada belgilangan ko'rsatkichlarga yetkazilgan. Bu holat kapital qurilish ishlari bosqichma-bosqich rejalashtirilgan holda amalga oshirilganini va asosiy strategik vazifalar aynan 1975-yilda to'liq bajarilganini ko'rsatadi[8].

Bu davrda inshoot turlari kesimida olib qaralganda, kapital qurilish ishlari asosan uch yo'nalishga jamlangan: gidrotexnik inshootlar, kommunal-ijtimoiy ob'yektlar va energetik infratuzilma. Gidrotexnik inshootlar, ya'ni kanallar, suv omborlari va gidrouzellar, umumiy kapital qo'yimlarning asosiy qismini tashkil etgan. Bu holat davlat siyosatida sug'oriladigan yerlarni saqlash va kengaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilanganini ko'rsatadi. Suv xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda, unga bog'liq ijtimoiy va kommunal obyektlar qurilishi ham nazardan chetda qolmagan.

Kommunal-ijtimoiy obyektlar, jumladan maktablar va uy-joy qurilishi, nisbatan kam mablag'lar bilan amalga oshirilgan bo'lsa-da, ular aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilgan. Bu obyektlar suv xo'jaligi tizimi rivojlanayotgan hududlarda ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash maqsadida barpo etilgan. Jumladan, kommunal qurilish sifatida qayd etilgan maktab qurilishi bo'yicha 1971-yilda maktab qurilishi uchun 20 ming so'm atrofida mablag' ajratilgan bo'lsa, 1972-1975 yillarda barqaror ravishda 25 ming so'mdan mablag' yo'naltirilgan. Bu holat suv inshootlari jadal qurilayotgan hududlarda aholi uchun ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan izchil siyosat amalga oshirilganini ko'rsatadi[9].

Uy-joy qurilishi bo'yicha 1971-yilda nisbatan past darajada (19 ming) bo'lgan bo'lsa, 1972-yilda uy-joy qurilishiga ajratilgan mablag'lar sezilarli oshib, jami 96 ming so'm mablag' ajratilgan. Keyingi yillarda ushbu ko'rsatkichlar barqaror saqlanganini suv xo'jaligi obyektlarida ishlayotgan mutaxassislar va ishchilarni turar joy bilan ta'minlash masalasi doimiy e'tibor markazida bo'lganligi bilan izohlanadi[10].

Energetik infratuzilma — elektr uzatish liniyalari va texnologik elektr podstansiyalarni qurilishi — suv inshootlarining barqaror ishlashi uchun zarur shart hisoblangan. Elektr ta'minotining yaxshilanishi nasos stansiyalari va gidrouzellarining uzluksiz ishlashini ta'minlab, butun suv xo'jaligi tizimining samaradorligini oshirgan. 1971–1975 yillarda energetik infratuzilmani rivojlantirish suv xo'jaligi obyektlarining barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan muhim yo'nalishlardan biri bo'lgan. Ayniqsa, elektr uzatish liniyalari va texnologik elektr podstansiyalari qurilishi irrigatsiya tizimida nasos stansiyalari, gidrouzellar va boshqa energiyaga bog'liq inshootlarni uzluksiz elektr ta'minoti bilan ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan.

1971-yilda energetik infratuzilma qurilishi boshlang'ich bosqichda bo'lib, elektr uzatish liniyalari qurilishi uchun 18 ming so'm, texnologik elektr podstansiyalari qurilishi uchun esa 140 ming so'm mablag' ajratilgan. Bu holat dastlab asosiy e'tibor elektr ta'minotining markaziy elementi hisoblangan podstansiyalarni barpo etishga qaratilganini ko'rsatadi. Elektr uzatish liniyalari bo'yicha mablag'lar nisbatan kam bo'lishi elektr tarmoqlarini bosqichma-bosqich qurish rejalashtirilgani bilan izohlanadi. 1972-yilda energetik infratuzilmani moliyalashtirish hajmi oshgan. Mazkur yilda elektr uzatish liniyalari qurilishi uchun 25 ming so'm, texnologik elektr podstansiyalari uchun esa 170 ming so'm mablag' ajratilgan. Bu davrda elektr tarmoqlarini kengaytirish ishlari faollashib, suv xo'jaligi inshootlarini barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etgan[11].

1973-yilda ham energetik infratuzilmaga ajratilgan mablag'lar barqaror saqlangan. elektr uzatish liniyalari qurilishiga 25 ming so'm, texnologik elektr podstansiyalari qurilishiga 170 ming so'm yo'naltirilgan. Bu holat 1972-yilda boshlangan ishlar uzviy davom ettirilganini va elektr ta'minoti tizimini shakllantirish jarayoni izchil ravishda amalga oshirilganini ko'rsatadi. 1974-yil energetik infratuzilmani rivojlantirishda eng faol bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa texnologik elektr podstansiyalari qurilishi uchun ajratilgan mablag'lar 185 ming so'mga etgan bo'lib, bu butun davrdagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Elektr uzatish liniyalari qurilishiga ham 25 ming so'm ajratilgan. Ushbu yilda suv xo'jaligi obyektlarining quvvati ortib borishi bilan bog'liq holda elektr ta'minoti tizimini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. 1975-yilda energetik infratuzilma qurilishi yakuniy bosqichga kirgan. elektr uzatish liniyalari qurilishi uchun ajratilgan mablag' 22 ming so'mga biroz kamaygan bo'lsa-da, texnologik elektr podstansiyalari qurilishi uchun 175 ming so'm mablag' saqlab qolingan. Bu holat asosiy elektr podstansiyalari qurilib bo'lingani va keyingi bosqichda tarmoqlarni to'ldirish hamda mavjud infratuzilmani mustahkamlash ishlari amalga oshirilganini ko'rsatadi[9].

Xulosa qilib aytganda XX asrning 70-yillarida Samarqand viloyatida sug'orish inshootlari tizimida kapital qurilish ishlari izchil va maqsadli ravishda amalga oshirilgan. Dastlabki yillarda tayyorgarlik va asos yaratish ishlari ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda kapital qo'yilmalar hajmi oshirilib, 1975-yilda asosiy suv inshootlarini to'liq ishga tushirishga erishilgan. Bu esa sug'orish tizimini modernizatsiya qilish, suv resurslaridan samarali foydalanish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishga xizmat qilgan. 1971–1975 yillarda elektr liniyalarini va texnologik elektr podstansiyalari qurilishiga ajratilgan mablag'lar tahlili shuni ko'rsatadiki, energetik infratuzilma suv xo'jaligi tizimini rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida qaralgan. Natijada nasos stansiyalari, gidrouzellar va boshqa suv inshootlarining uzluksiz ishlashi ta'minlanib, butun irrigatsiya tizimining samaradorligi oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Komilov O. The history of water management system in Uzbek SSR (1950–1990) // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 6 № 3 (2025) ; Абдуллаев А. Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлиги ва унинг оқибатлари (1917-1991 йй.). тарих.фан.докт. дисс. ... –Тошкент: 2010.
2. Komilov O. The history of water management system in Uzbek SSR (1950–1990) // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 6 № 3 (2025) .-P.25
3. <https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/110429> (мурожаат вақти 20.11.2025)
4. ЎзМА, Р-2483 фонд, 2- рўйхат, 959-йиғма жилд, 54-варақ
5. Абдуллаев А. Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлиги ва унинг оқибатлари (1917-1991 йй.). тарих.фан.докт. дисс. ... –Тошкент: 2010. –Б.156
6. ЎзМА, Р-2483 фонд, 2- рўйхат, 959-йиғма жилд, 54-варақ
8. ЎзМА, Р-2483 фонд, 2- рўйхат, 959-йиғма жилд, 55-варақ
9. ЎзМА, Р-2483 фонд, 2- рўйхат, 959-йиғма жилд, Самарқанд вилояти бўйича сув хўжалиги қурилишининг 5 йиллик режаси (1971–1975 йиллар) ҳисоботи,18-варақ
10. ЎзМА, Р-2483 фонд, 2- рўйхат, 959-йиғма жилд, 55-56 варақлар
11. ЎзМА, Р-2483 фонд, 2- рўйхат, 959-йиғма жилд, 55-варақнинг б қисми